



KDB Bank Uzbekistan

BIZNESS REJA 2021



O'zR, Toshkent shahar,
Buxoro ko'chasi, 3 - uy



Tel: +99878 1208000
Faks: +99878 1206970




e-pochta: info@kdb.uz
Vebsayt: www.kdb.uz


MUNDARIJA

| | | |
|-----------|--|----|
| 1. | Biznes Muhit va Istiqbollar | |
| 1.1 | Bankning Rivojlanish Tarixi | 03 |
| 1.2 | Bankning Mulkchilik Tuzilmasi | 03 |
| 1.3 | O'zbekistonning Iqtisodiy Istiqbollari | 04 |
| 2. | Biznes Reja va Boshqaruv Strategiyasi | |
| 2.1 | Bank Maqsadi va Boshqaruv Rejasi | 06 |
| 2.2 | Moliyaviy Rivojlanish Rejasi | 07 |
| 2.3 | Takomillashtirish Rejasi | 10 |
| 2.4. | Yillik Byudjet va uning Tahlili | 12 |

Bankning Rivojlanish Tarixi



Bankning Mulkchilik Tuzilmasi



O'zbekistonning Iqtisodiy Istiqbollari

COVID-19 koronavirusi 2020 yilda butun dunyoga tarqalishi insonlar salomatligiga ta'siri bilan bir qatorda barcha mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda, shuningdek, unga qo'shni davlatlarda va asosiy savdo sheriklarida sezilarli iqtisodiy oqibatlariga olib keldi. 2020 yilda Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) mos ravishda 3.8%, 2.6% va 8.6% ga kamaydi. O'zbekistonning eng yirik savdo sherigi bo'lgan Xitoyning ijobiy o'sishi 2.3 foizni tashkil etgan bo'lsada, bu so'nggi 45 yil ichidagi eng past o'sish ko'rsatkichidir¹.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining taqdim qilgan ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonning iqtisodiyoti 2020 yilda ijobiy o'sish dinamikasini saqlab qolgan. 2020 yilda Yalpi ichki mahsulot 580.2 trln. so'mni tashkil etib, 1.6 foizga o'sgan bo'lsa, 2019 yilda esa YaIM o'sish sur'ati 5.6 foizni tashkil etgan edi.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) taqdim etgan prognozga ko'ra, 2021 yilda Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 5.0% gacha tiklanishi kutilmoqda. Savdo va investitsiya oqimlarini bosqichma-bosqich tiklanishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sermahsul kelishi, chet eldan pul o'tkazmalarining ortishi va vaktsinalarning keng tarqalishi YaIM ko'rsatkichini o'sishiga turtki bo'lishi hamda qashshoqlik va ishsizlikni yanada kamaytirishga yordam berishiga ishonch bildirilmoqda.

O'zbekistonda iste'mol narxlari indeksi (INI) 2020 yil oxirida 2019 yil dekabrda nisbatan 111.1% ni tashkil etdi, ushbu ko'rsatkich bir yil oldin esa 115.2% ni tashkil etgan edi. 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mamlakat iqtisodiyotida narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida inflyatsiya darajasini 10.0% dan yuqori bo'lmagan holda ushlab turishni rejalashtirmoqda.

Pandemiya mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 2020 yilda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilga nisbatan 13.1%ga kamaydi.

Xususan, 2020 yilda eksport va import hajmi tegishli ravishda 15.1 mlrd. va 21.2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa o'tgan yilgi ko'rsatkichlardan mos ravishda 13.4% va 12.8% ga kam. Tashqi savdo balansi 6.1 mlrd. AQSh dollari miqdorida salbiy qoldiqni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tasdiqlangan prognoziga binoan tashqi savdo aylanmasi 41.9 mlrd. AQSh dollarini (15.4% ga o'sishi) tashkil etishi rejalashtirilgan. Xususan, tovar va xizmatlar eksporti 27.1 foizga (19.2 mlrd. AQSh dollari), import 7.1 foizga (22.7 mlrd. AQSh dollari) o'sishi kutilmoqda. Natijada salbiy savdo balansi 2020 yildagi 6.1 mlrd. AQSh dollaridan 2021 yilda 3.5 mlrd. AQSh dollarigacha qisqaradi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar²

| Ko'rsatkichlar | Birlik | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 (prognoz) |
|--------------------------------|--------------------|----------|----------|-----------|-----------|--------------------|
| YaIM real o'sishi | % | 4.5% | 5.4% | 5.6% | 1.6% | 5.0% ³ |
| Nominal YaIM | trln. so'm | 302.5 | 406.6 | 511.8 | 580.2 | 669.0 ³ |
| Inflyatsiya darajasi | % | 14.4% | 14.3% | 15.2% | 11.1% | 10.0% ⁴ |
| Tashqi savdo aylanmasi | mlrd. AQSH dollari | 26.5 | 33.4 | 41.8 | 36.3 | 41.9 ⁵ |
| Tovarlar eksporti | mlrd. AQSH dollari | 12.5 | 14.0 | 17.5 | 15.1 | 19.2 |
| Tovarlar importi | mlrd. AQSH dollari | 14.0 | 19.4 | 24.3 | 21.2 | 22.7 |
| Savdo balansi | mlrd. AQSH dollari | -1.5 | -5.4 | -6.8 | -6.1 | -3.5 |
| Valyuta zaxirasi ⁶ | mlrd. AQSH dollari | 28.1 | 27.1 | 29.2 | 34.9 | 34.5 ³ |
| Ayirboshlash kurslari | | | | | | |
| So'm : AQSH dollari (o'rtacha) | so'm | 5,121.18 | 8,068.87 | 8,838.00 | 10,058.08 | - |
| So'm : AQSH dollari | so'm | 8,120.07 | 8,339.55 | 9,507.56 | 10,476.92 | - |
| So'm : Evro | so'm | 9,624.72 | 9,479.57 | 10,624.70 | 12,786.03 | - |

¹ Abaturov R. (2021) 2020 yil dastlabki natijalar: O'zbekiston iqtisodiyoti turl xil ta'sirlarga barqarorligini namoyish etmoqda. Manba: <https://review.uz/uz>

² Davlat statistika qo'mitasi (2017-2020) O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. Manba: www.stat.uz

³ XVF (2021) Republic of Uzbekistan: 2021. Article IV Consultation. Manba: www.imf.org

⁴ MB (2020) 2021-2023 yilga mo'ljallangan pul-kredit siyosati. Manba: www.cbu.uz/ru/press_center/news

⁵ Moliya Vazirligi (2020) O'zbekiston Respublikasining Davlat Byudjeti 2021. Manba: https://www.mf.uz/media/file/state-budget/2021/fuk_uchun/Budjet_21_ru.pdf

⁶ MB (2017-2020) O'zbekiston Respublikasining oltin-valyuta zaxiralari. Manba: <https://cbu.uz/en/statistics/intlreserves/>

O'zbekiston Respublikasining Jami Aktivlari bo'yicha Yirik 20 ta Banki

2020 yil yakuni bo'yicha (mln. AQSH dollari, %)

| O'rin | Bank nomi | Aktiv | Kapital | Sof Foyda | ROA* | ROE* |
|-----------|-----------------------------|---------|---------|-----------|------|-------|
| 1 | O'zmilliybank | 7,622.6 | 1,324.2 | 90.0 | 1.6% | 8.7% |
| 2 | O'zsanoatqurilishbank | 4,681.2 | 639.9 | 79.4 | 2.4% | 15.5% |
| 3 | Asaka Bank | 4,344.6 | 613.3 | 33.9 | 1.1% | 6.8% |
| 4 | Ipoteka Bank | 3,093.4 | 407.9 | 48.0 | 2.0% | 14.3% |
| 5 | Agrobank | 2,979.0 | 512.7 | 25.3 | 1.1% | 5.5% |
| 6 | Xalq Bank | 2,520.8 | 464.7 | 50.2 | 2.3% | 10.9% |
| 7 | Qishloq Qurilish Bank | 1,519.9 | 230.4 | 22.2 | 2.0% | 14.7% |
| 8 | Hamkorbank | 998.6 | 141.0 | 33.7 | 4.4% | 32.9% |
| 9 | Mikrokreditbank | 981.5 | 165.9 | 9.9 | 1.5% | 7.3% |
| 10 | Turonbank | 831.7 | 115.5 | 11.5 | 2.0% | 12.8% |
| 11 | Aloqabank | 773.9 | 149.7 | 16.9 | 2.7% | 14.3% |
| 12 | Kapitalbank | 695.9 | 82.7 | 13.5 | 2.9% | 24.2% |
| 13 | Ipak Yo'li Bank | 664.0 | 113.7 | 25.0 | 5.1% | 32.9% |
| 14 | KDB Bank O'zbekiston | 600.5 | 63.1 | 6.8 | 1.7% | 13.9% |
| 15 | Orient Finance Bank | 489.5 | 107.4 | 24.4 | 6.6% | 31.4% |
| 16 | Trastbank | 452.0 | 78.4 | 31.2 | 9.3% | 56.0% |
| 17 | Invest Finance Bank | 440.6 | 59.9 | 10.3 | 2.8% | 22.3% |
| 18 | Asia Alliance Bank | 280.1 | 32.2 | 4.7 | 2.3% | 18.9% |
| 19 | Davr Bank | 172.3 | 28.9 | 10.2 | 8.1% | 51.5% |
| 20 | Tenge Bank | 152.1 | 34.5 | 2.2 | 2.9% | 11.8% |

* ROA va ROE daromad solig'idan oldingi foydaga asoslangan holda hisoblangan



Bank Maqsadi va Boshqaruv Rejasi

MAQSAD

MDH Mintaqasidagi Yetakchi Bank

2021 YIL
UCHUN BOSH
REJA

Raqamli yechimlar va yangi moliyaviy xizmatlar orqali
raqobatbardoshlikni oshirish

2021 YILDAGI ASOSIY VAZIFALAR

RIVOJLANTIRISH

TAKOMILLASHTIRISH



Operatsion
aktivlarni
kengaytirish



Barqaror mablag`lar
hajmini oshirish va
risklarni boshqarish



Raqamli bank
xizmatlarini
rivojlantirish



Inson va moddiy
infratuzilma omili
orqali samaradorlikni
oshirish

ASOSIY VAZIFALARNING TAFSILOTLARI

- Kredit faoliyatini oshirish
- Qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish
- Foizsiz daromadlarni kengaytirish uchun faol marketing olib borish
- Karta biznesini rag'batlantirish

- Istiqbolli mijozlarni jalb etish
- Risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish

- Yangi Internet Bank xizmatini yaratish
- Mobil Bank ilovasini takomillashtirish
- Aloqa Markazini o'rnatish

- Intranet tizimini ishga tushirish
- "Bank xizmatlari Koordinatorini" vazifasini yaratish
- Xodimlar tizimini boshqarish
- Tadqiqot faoliyatini kuchaytirish
- Filiallar joylashuvini o'zgartirish

Moliyaviy Rivojlanish Rejasi

O'zbekiston Respublikasining moliyaviy muhiti hamda jahon moliya bozoridagi joriy tendentsiyalarni hisobga olgan holda, bank boshqaruv organi tomonidan 2021 yil uchun quyida keltirilgan moliyaviy ko'rsatkichlar belgilandi.

Rejalashtirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy bandlari

Birlik: \$ ming, %

| Ko'rsatkichlar | 2021 yil Reja | | 2020 yil Ijro | | |
|---|------------------|-------------------|------------------|------------------|-----------------|
| | Reja (A) | O'sish (A-C)/C | Reja (B) | Fakt (C) | Ijrosi (C/B) |
| MOLIYAVIY HOLAT | | | | | |
| Jami Aktivlar | 650,069 | 8.3% | 500,072 | 600,492 | 120% |
| Naqd pul, banklararo depozitlar va mablag'larni joylashtirish | 498,069 | (0.1%) | 397,627 | 498,384 | 125% |
| Operatsion aktivlar | 145,000 | 52.6% | 90,457 | 94,975 | 105% |
| Jami Majburiyatlar | 585,272 | 8.9% | 440,071 | 537,365 | 122% |
| Mijozlar depozitlari | 584,072 | 8.9% | 438,881 | 536,122 | 122% |
| Jami Kapital | 64,797 | 2.6% | 60,001 | 63,126 | 105% |
| DAROMAD HISOBOTI | | | | | |
| Sof foizli daromadlar | 15,039 | 10.8% | 13,573 | 13,569 | 100% |
| Sof foizsiz daromadlar | 5,690 | 27.5% | 4,857 | 4,462 | 92% |
| Ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxira (Yaratilishi - / Qaytarilishi +) | 237 | - | - | (266) | - |
| Sof Operatsion Daromad | 20,966 | 18.0% | 18,430 | 17,765 | 96% |
| Operatsion xarajatlar | (9,977) | 10.2% | (10,609) | (9,057) | 85% |
| Daromad solig'idan oldingi sof foyda | 10,989 | 27.2% | 7,816 | 8,637 | 111% |
| Sof foyda | 8,626 | 27.1% | 6,195 | 6,789 | 110% |
| <i>Ayirboshlash kursi: UZS/USD</i> | <i>11,681.77</i> | <i>11.5%</i> | <i>10,933.69</i> | <i>10,476.92</i> | <i>96%</i> |
| <i>O'rtacha ayirboshlash kursi: UZS/USD</i> | <i>11,079.34</i> | <i>10.2%</i> | <i>10,233.95</i> | <i>10,058.08</i> | <i>98%</i> |

Izoh: Biznes reja rasmiy buxgalteriya standartlari asosida tayyorlandi. O'zbek so'mi O'zbekiston Respublikasining amalda qo'llanilayotgan pul birligi bo'lganligi sababli, yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar avval so'mda hisoblanib so'ngra prognoz qilingan valyuta kursi (2021 yil 31 dekabr holatiga \$1 = 11,681.77 so'm va o'rtacha ayirboshlash kursi \$1=11,079.34 so'm) ni qo'llagan holda AQSH dollariga aylantirildi.

Rejalashtirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy bandlariga izohlar

Bankning biznes rejasiga asosan 2021 yil 31 dekabr holatiga jami aktivlar ko'rsatkichi 8.3% (yoki 49.6 mln AQSH dollari) ga o'sishi va 650.1 mln AQSH dollarini tashkil etishi ko'zlangan. Xususan, Bank operatsion aktivlarini 50.0 mln AQSH dollariga oshirishni rejalashtirgan.


(i) OPERATSION AKTIVLARNI KENGAYTIRISH

Bankning operatsion aktivlari kredit portfeli, shuningdek, moliyaviy institutlar hamda mahalliy va chet el davlat organlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiya (bond, yevrobond, g'aznachilik vekseli, depozit sertifikatini va hokazo) lardan iborat.

Operatsion aktivlar 50 mln AQSH dollari (52.7%) miqdorida ortishi va ularning jami aktivlardagi ulushi 2021 yil oxiriga kelib 22% (2020 yildagi 16% ga nisbatan) ni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

Xususan, yuridik va jismoniy shaxslarga kredit ajratish 13.5 mln AQSH dollariga, mahalliy banklarga kredit (On-lending va savdoni moliyalashtirish) taqdim etish 27 mln AQSH dollariga va qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish 9.5 mln AQSH dollariga ortishi rejalashtirilgan.

OPERATSION AKTIVLARNING JAMI AKTIVLARDAGI ULUSHI



OPERATSION AKTIVLAR TUZILMASI

Birlik: \$ mln

| | Fakt 2020 | Sof o'sish FY2021 | JAMI FY2021 |
|--|--------------|----------------------|----------------|
| Yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlar | 89.5 | 13.5 | 103.0 |
| "On-Lending" kreditlari | 5.0 | 20.0 | 25.0 |
| Savdoni moliyalashtirish kreditlari | 7.0 | | 7.0 |
| Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar | 0.5 | 9.5 | 10.0 |

Kredit faoliyatini oshirish

Yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlar (▲13.5 mln AQSH dollari)

2021 yilda Bank o'z sohalarida yuqori mavqega ega bo'lgan korporativ mijozlarni jalb qilishga qaratilgan faoliyatini kengaytiradi. Bank odatdagidek loyihalarni kredit bilan moliyalashtirishdan avval mijozlarning moliyaviy faoliyati va biznes-rejasini ko'rib chiqishda konservativ yondashuvni qo'llashda davom etadi. Bank asosan tog'-kon sanoati, ichimliklar, oziq-ovqat, kabel mahsulotlari, qurilish materiallari, farmatsevtika, plastmassa buyumlari hamda qog'oz va gigiena mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va moliyaviy jihatdan ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan eng yirik kompaniyalarga kreditlar ajratadi.

Bankning tajribali kredit jamoasi xodimlari tomonidan doimiy ravishda samarali marketing va "cross-selling" choralari orqali mijozlarni jalb qilish maqsadida bank sohasidagi o'zgarishlarga jiddiy e'tibor qaratib kelinadi va o'sib borayotgan tarmoqlar bo'yicha tahliliy tadqiqotlar olib boriladi.

2021 yil oxiriga kelib, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar portfeli 2020 yil so'ngidagi 89.5 mln AQSH dollariga nisbatan 103.0 mln AQSH dollarini tashkil etishi mo'ljallanmoqda.

Mahalliy banklarga kreditlar (▲27mln AQSH dollari)

2020 yilda Bank yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlardan tashqari o'z tajribasida birinchi marotaba mahalliy banklarga qarz berishni boshladi va 5 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratdi.

2021 yilda Bank mahalliy banklar orqali kichik va o`rta biznesning investitsiya va savdo faoliyatini qo`llab-quvvatlash maqsadida kreditlar ajratishni jadallashtirmoqchi. 2021 yil oxiriga kelib kreditlash va savdoni moliyalashtirish miqdori 32 mln AQSh dollarigacha yetishi rejalashtirilmoqda.

Qimmatli qog`ozlarga investitsiyalar

2021 yilda, Bank AQShning g`aznachilik veksellarini, O'zbekiston hukumati va unga tegishli mahalliy banklar tomonidan chiqarilgan evrobondlarni hamda boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali investitsiyalarni kengaytirishni, shu bilan bir qatorda Bankning operatsion aktivlarini diversifikatsiya qilish va qo`shimcha daromad olishni ko`zlamoqda.

(ii) BARQAROR MABLAG`LARNI OSHIRISH VA RISKLARNI BOSHQARISH

Istiqbolli mijozlarni jalb etish

So`ngi bir necha yillar davomida mijozlarning mablag`lari bankning jami majburiyatlarining asosiy qismini tashkil etgan holda, bank aksiyadorlari kapitaliga qo`shimcha ravishda operatsion aktivlarni qo`llab – quvvatlash uchun barqaror mablag` manbai bo`lib xizmat qilib kelmoqda.

Bankning biznes rejasiga muvofiq mijozlar depozitlari AQSH dollari ekvivalentida 2020 yildagi 536.1 mln.ga nisbatan 2021 yilda 584.1 mln.ni tashkil etishi ko`zlanmoqda. O`shir sur`ati 48.0 mln AQSH dollarini yoki 8.9% tashkil etishi kutilmoqda.

2021 yildagi rejalashtirilayotgan depozitlar o`shishi asosan bankning mavjud mijozlar mablag`larining ortishi, xususan, neft va gaz, energetika, aviakompaniya, kon, telekommunikatsiya, ichimlik, savdo va boshqa sanoatlardagi kompaniyalar hamda yangi mijozlarni jalb qilish hisobiga yuz berishi kutilmoqda.

Bankning mijozlar bilan shug`ullanuvchi menejerlari bankning barqaror mablag`larini ko`paytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini quyida keltirilgan chora-tadbirlar orqali davom ettiradi:

- Kredit shartnomalari bo'yicha qarzdorlikni boshqarish zaxira hisobvarag`iga (DSRA) ega bo`lishi rejalashtirilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korporativ mijozlarni jalb qilish;
- Mamlakatda yetakchi va rivojlanib borayotgan kompaniyalar va hozirgi davrda bankda ikkilamchi hisob raqami mavjud bo`lgan mijozlarning asosiy mablag`larini jalb qilish;
- Milliy valyutadagi mablag`larni oshirish maqsadida, yangidan ishlab chiqilayotgan hamda raqobatbardosh tariflarga ega bo`lgan raqamli bank dasturlari (internet banking va mobil ilova) orqali, kichik va o`rta biznes vakillarini hamda jismoniy shaxslarni jalb etish.

Risklarni boshqarish tizimi


Bank ichki jaroyanlarini doimiy ravishda tahlil qilib boradi hamda "Bank faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan qanday hodisalar mavjudligi va ushbu halokatli voqealarni boshqarish uchun qanday chora-tadbirlar qo`llanilishi kerak?" kabi savollarga javob beradigan turli xil holatlarni simulyatsiyalagan holda ko`rib chiqadi.

2021 yilda Risklarni boshqarish boshqarmasi operatsion aktivlarni o`shishi bilan bog`liq xatarlarni jiddiy nazorat ostiga oladi. Kredit va likvidlik – bu bankning diqqat markazida turadigan ikkita asosiy risklar hisoblanadi. Bundan tashqari, "Bir qarz oluvchi, o`zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko`p miqdori to`g`risida"gi yangi Nizomga rioya qilish bankning eng ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Shuning uchun, bank rahbariyati Markaziy bank tomonidan o`rnatilgan normativlarni boshqarish va 2021 yilga belgilangan prognozlarni ishonchliligini oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan limitlarni boshqarish va koeffitsientlarni hisoblash tizimini ishlab chiqish va joriy etishni rejalashtirmoqda.

Bankni havotirga solayotgan yana bir xatar bu operatsion riskdir, chunki koronavirus infeksiyasining tarqalishi mijozlar uchun raqamli bank yechimlarini taklif qilish orqali raqobatbardosh bo`lish hamda ishchi kuchini optimallashtirish orqali uzluksiz ish jarayonini yo`lga qo`yish muhimligini ko`rsatdi. Shunga ko`ra, bank xizmatlarini raqamlashtirish bilan bir qatorda kiberxavfsizlikni oshirish uchun yo`l xaritasiga ega bo`lish juda muhimdir.

MIJOZLAR DEPOZITLARI



(iii) SOF OPERATSION DAROMADNI OSHIRISH

Biznes rejaga asosan, Bankning sof operatsion daromadi 2020 yildagi 17,765 ming AQSH dollariga nisbatan 2021 yilda 20,966 ming AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Rejalashtirilayotgan 3,201 ming AQSH dollarigacha o'sish ko'rsatkichiga erishish uchun asosan sof foizli daromadlarni 1,470 ming AQSH dollariga, hamda sof foizsiz daromadlarni 1,229 ming AQSH dollariga oshirish rejalashtirilgan.

Takomillashtirish Rejasi


(i) RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Yuzaga kelgan COVID-19 inqirozi banklarni va ularning mijozlarini raqamli bank xizmatlaridan foydalanishga majbur qildi. Shu sababli, bank mijozlarini masofadan qo'llab - quvvatlash uchun zamonaviy internet bank tizimini hamda bir vaqtning o'zida bank xodimlari o'rtasida hujjatlarni elektron shaklda aylantirish uchun yangi ichki Intranet platformasini joriy qilish orqali raqamli bank yechimlarini 2020 yilda o'z tizimiga integratsiyalashni boshladi.

Bundan tashqari, 2021 yilda bank jismoniy shaxslar uchun funktsiyalarni kengaytirish orqali mavjud mobil bank ilovasini yangilashni, shuningdek, bank o'z tajribasida mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash uchun aloqa markazi tizimini ishlab chiqishni rejalashtirmoqda.

Yangi internet bank tizimi

Internet bank tizimining amaldagi dasturi 2012 yilda o'rnatilganligi va cheklangan funktsiyalarga ega ekanligini, hamda boshqa yetakchi mahalliy banklar taklif etayotgan yechimlar bilan taqqoslaganda orqada qolayotganini hisobga olsak, yangi internet bank yechimi quyida keltirilgan yangi va takomillashtirilgan imkoniyatlari bilan mijozlarni tizim bilan ishlash tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi:



Yangi internet bank tizimini ishlab chiqish 2020 yilning boshida boshlangan bo'lib, 2021 yilning birinchi yarmida ishga tushirilishi kutilmoqda.

Yangilangan mobil bank ilovasi

2018-yilda ishga tushirilgan mobil bank ilovasi – MultiPay, o'zining funktsionalligi va qulay interfeysi bilan odamlar orasida e'tirofga sazovar bo'ldi. 2021 yilda, Bank yangi funktsiyalarni qo'shish orqali mijozlarga ko'proq imkoniyatlar va qulayliklar yaratish maqsadida mobil bank ilovasini yanada takomillashtirishda davom etadi.

Quyida keltirilgan funktsiyalar 2021 yil davomida qo'shimcha ravishda mobil ilovada yaratilishi rejalashtirilgan:



Aloqa Markazi

Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini va samaradorligini oshirish, raqobatbardosh bo'lish, shuningdek, raqamli bank xizmatlarning rivojlanayotganligi sababli mijozlarning murojaatlari ortishiga tayyor turish maqsadida, Bank rahbariyati 2021 yilda aloqa markazi xizmatini joriy etishga qaror qildi. Markaz telefon qo'ng'iroqlari, chatlar, e-pochta, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa yo'llar orqali kiruvchi barcha murojaatlarni boshqarish uchun mas'ul bo'ladi.

(ii) INSON VA MODDIY INFRATUZILMALAR OMILI ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Bank rahbariyati yuqori malakali, professional va ijobiy firklaydigan jamoaning mavjudligini o'zining strategik muhim afzalliklaridan biri deb biladi. Shuningdek, ish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy moddiy infratuzilmaga ega bo'lish ham muhim hisoblanadi.


Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ish samaradorligini oshirish maqsadida 2021 yilda inson omili va moddiy infratuzilmani yaxshilash uchun quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirilgan:



Bank xodimlari o'rtasida aloqani kuchaytirish va biznes amaliyotini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish maqsadida **Intranet tizimini** joriy etish



Bankning biznes bo'linmalarini yanada samarali boshqarish, ayniqsa bank xizmatlariga hamda mijozlariga mas'ullar o'rtasidagi bahs-munozarali vaziyatlarni muvofiqlashtirish, shuningdek bozor muhiti va mijozlar talablarining o'zgarishiga darhol javob berish maqsadida **"Bank xizmatlari Koordinator"** funktsiyasini yaratish



Bankning muhim lavozimlariga salohiyatli va malakali nomzodlarning ma'lumotlar bazasini yaratish orqali **ish bilan ta'minlash tizimini boshqarish**



O'zbekiston va Makraziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy va moliyaviy tendensiyalardan xabardor bo'lish hamda kelajakda kengayish salohiyatini o'rganish uchun **tadqiqotlar faoliyatini kuchaytirish**



Biznes samaradorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish uchun filiallar (Yunusobod va Yakkasaroy)ni **joylashuvini o'zgartirish**

Yillik byudjet va uning tahlili

(i) OPERATSION XARAJATLAR

2021 yida bankning operatsion xarajatlari 2020 yildagi ko`rsatkichlarga qaraganda AQSH dollari ekvivalentida 10.2% ga o`shishi prognozlashtirilmoqda.

(ii) KAPITAL XARAJATLAR

- Filiallarni ko`chirish
- AT infratuzilmasi va raqamli bank yechimlarini rivojlantirish
- Karta biznesi uchun serverlar va jihozlar
- Ma'muriy xarajatlar (transport vositalari, mebellar va jihozlar)